

Soliq va bojxona imtiyozlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 sentyabrdagi "Avtomobil yo'llarini ko'kalamzorlashtirish va arxitektura-landshaft jihatdan tuzish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3262-son qaroriga muvofiq Avtomobil yo'llari qo'mitasi tarkibidagi "O'zyo'lko'kalamzorlashtirish" unitar korxonasi va uning tarkibiy bo'linmalari 2025 yilning 1 yanvariga qadar dekorativ o'simliklar yetishtirish uchun ko'chatxonalar band qilgan yer uchastkalari qismida yer solig'i to'lashdan, yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i to'lashdan ozod qilingan.